

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.53.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI**

ADILOVA SHOXISTA SHUXRAT QIZI

**O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YUMSHOQ BUGDOYDA
QURGOQCHILIKKA CHIDAMLILIGINING GENETIK ASOSLARI**

03.00.09- Umumiy genetika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Oglavlениe avtoreferata doktorskoy (DSc) dissertasii

Contents of abstract of doctoral (DSc) dissertation

Adilova Shoxista Shuxrat qizi

O‘zbekiston sharoitida yumshoq bug‘doyda qurg‘oqchilikka chidamliligining genetik asoslari3

Адилова Шохиста Шухрат кизи

Генетические аспекты засухоустойчивости пшеницы в условиях Узбекистана21

Adilova Shokhista Shuxrat kizi

Genetic basis of drought resistance in bread wheat under Uzbekistan's conditions39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works43

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.53.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI**

ADILOVA SHOXISTA SHUXRAT QIZI

**O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YUMSHOQ BUGDOYDA
QURGOQCHILIKKA CHIDAMLILIGINING GENETIK ASOSLARI**

03.00.09- Umumiy genetika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/B334 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.genetika.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Morgunov Aleksey Ivanovich
Qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi

Rasmiy opponentlar:

Ubaydullayeva Xurshida Abdullayevna
biologiya fanlari doktori

Djabborov Ibrohim Shodmanovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «___» _____ kuni soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz p/b. Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 264-23-90; faks: (+99871) 264-23-90, E-mail: igebr_anruz@mail.ru)

Dissertatsiya bilan Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz p/b. Tel.: (+99871) 264-23-90.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ da tarqatildi.
(2025 yil «___» _____ dagi ___ raqamli ryeyestr bayonnomasi)

A.A. Narimanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, q/x.f.d., professor

I.Dj.Kurbanbayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.d., professor

I.T.Qaxxorov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi q/x..f.d.,
professor.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda yumshoq bug‘doy (*Triticum aestivum* L.) oziq-ovqat uchun ekiladigan eng muhim ekinlardan biri hisoblanadi. FAO ning 2024 yilgi oxirgi malumotlarga ko‘ra, butun dunyo bo‘ylab yumshoq bug‘doy 220 million gektar maydonga ekilib, 792,9 million tonna don yetishtirilgan. So‘nggi yillardagi global iqlim o‘zgarishi abiotik stressning ortishi bug‘doy hosildorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu kabi muammolarning oldini olishda qishloq xo‘jalik ekinlarining biotik va abiotik omillarga chidamli genetik takomillashgan yangi navlarini yaratishda zamonaviy markerlarga asoslangan seleksiya texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda sug‘oriladigan maydonlarda yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi ekinlarining suv tanqisligiga bardoshlilikini oshirish bo‘yicha qator ilmiy ishlar olib borilmoqda. Bu borada bug‘doyning turli stress omillarga bardoshli qadimgi bug‘doy navlari va yovvoyi avlodlarida mavjud bo‘lgan chidamlilik genlarini maxalliy navlarga o‘tkazish, hosildorlik va chidamlilik bilan bog‘liq bo‘lgan DNK markerlarini aniqlash, markerlarga asoslangan texnologiyadan foydalangan holda qimmatli genotiplarni ajratib olish dolzarb vazifalardan xisoblanadi.

Respublikamizda g‘alla mustaqilligiga erishgach, mahalliy bug‘doy navlarini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar, xususan bu ekinlarning xosildorligini oshirishda muayyan yutuqlarga erishildi, jumladan yumshoq bug‘doyning kasallik va zararkunandalarga chidamli, qimmatli xo‘jalik belgilari yuqori bo‘lgan navlari yaratilib ishlab chiqarishga joriy etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”¹ ning 30-maqsadida Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish vazifa etib ko‘rsatilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib respublikaning tuproq iqlim sharoitlariga moslashgan yuqori hosilli va turli stress omillarga bardoshli bug‘doy navlarini yaratishda uning genetik asoslarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyuldagi PF-5742-son "Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi, 2021 yil 15 noyabrdagi PQ-10-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «G‘alla yetishtirish va sotishda erkin raqobatni ta‘minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish to‘g‘risida» gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02 fevral 2023 yildagi 51-son 2023 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasida urug‘chilik va ko‘chat yetishtirishni rivojlantirish milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” ga qarori hamda boshqa me‘yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning 30-maqsadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi Xorij olimlari tomonidan bug‘doy navlarining bug‘doy qurg‘oqchilikka chidamliligi bo‘yicha CIMMYT xalqaro tashkilotida Ravi Sinh, Suchismita Mondal, qurg‘oqchil hududlardagi qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari uchun xalqaro tashkilotda qator olimlar (ICARDA) Ram Sharma, Wuletaw Tadesse (ICARDA-Morocco), Sanchez Garcia, Miguel (ICARDA-Morocco), Keser Mesut (ICARDA-Turkey) tadqiqotlar olib borishgan.

MDX davlatlarining olimlari A. V. Alabushev, S.B Lepexov , N.D. Pronina, A.F Tumanyan, V.V.Maymistov tomonidan suv tanqisligi sharoitida yetishtirilgan bug‘doy navlarining morfobiologiyasi, fiziologiyasi, genetikasi o‘rganilgan. A.V. Alabushev madellashtirilgan qurg‘oqchilik sharoitida yumshoq bug‘doyning qurg‘oqchilikka chidamliligini, S.B Lepexov Oltoy mintaqasining o‘rmon dashtli hududlarida yumshoq bug‘doyning qurg‘oqchilikka chidamliligini o‘rgangan. N.D. Pronina bahorgi bug‘doyning qurg‘oqchilik sharoitida qiyosiy taxlili o‘rganilgan. A.F Tumanyan bahorgi arpa navlarining qurg‘oqchilikka chidamliligini o‘rgangan.

Mamlakatimizda, abiotik omillar – issiqlik va qurg‘oqchilikka chidamli, yuqori hosildor navlarni yaratish bo‘yicha S.K.Baboyev, A.A.Amanov, Sh.Dilmurodov, B.Chinniqulov, S.Baboyeva, F.N.Kushanov va boshqa olimlar tomonidan keng tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq hozirga qadar vatanimiz olimlari tomonidan bu sohadagi ilmiy izlanishlar kam sonli bo‘lib, qurg‘oqchilikka chidamlilik bilan asosiatsiya DNK markerlari yordamida qurg‘oqchilikka chidamli genlarni anqilash to‘liq bajarilmagan.

Dissertatsiya ishining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining A-FA-104 Dissertatsiya ishi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Bug‘doyning yuqori sifatli, genetik boyitilgan, muhitning biotik va abiotik omillariga chidamli, yuqori to‘yimlilik xususiyatiga ega bo‘lgan navlarini yaratish. Dukkakli ekinlar biotexnologiyasi” mavzusidagi davlat byudjeti (2020-2022 yy) doirasida bajarilgan”

Tadqiqotning maqsadi - Respublikada yetishtirilayotgan hamda qadimdan ekilib kelingan mahalliy bug‘doy navlarini qurg‘oqchilikka chidamlilik ko‘rsatkichlari bo‘yicha fenotiplash hamda ushbu genlar bo‘yicha molekulyar genetik genotiplashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Yumshoq bug‘doyning jahon kolleksiyasi, respublikada rayonlashgan hamda qadimiy mahalliy bug‘doy nav namunalarini suv tanqisligiga bardoshlilik bo‘yicha fenotiplash;

bug‘doy namunalarida suv tanqisligining bug‘doy vegetativ rivojlanishiga va hosildorlikni ta‘minlovchi belgilarga ta‘sirini aniqlash;

optimal va suv tanqisligi sharoitida bug‘doyning qimmatli xo‘jalik belgilari va hosildorlik orasidagi korrelyatsion bog‘liqlikni aniqlash. Genotip x muhit x yil o‘zaro ta‘sirini tavsiflash;

Mikrosatellit markerlari yordamida bug‘doyning qurg‘oqchilikka chidamlililigini asosiacyalash;

Qurg‘oqchilikka chidamlilik DNK markerlari joylashgan genom hududlaridan nomzod genlarni izlab topish uchun *in silico* PZR va *AUGUSTUS* genlarni bashorat qilish;

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida bug‘doyning jahon kolleksiyasidan olingan 25thFAWWON-SA (qurg‘oqchil sharoitga moslashgan fakultativ kuzgi bug‘doy), respublikada rayonlashgan bug‘doy navlari va qadimiy mahalliy bug‘doy navlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning predmeti suv tanqisligi sharoitida kuzgi bug‘doy nav namunalarini fenotiplash, bug‘doy genotiplarining hosildorlik belgilari barqarorligini baxolash, mikrosatellit markerlari yordamida bug‘doyning qurg‘oqchilikka chidamlililigini asosiacyalash va *in silico* usulida nomzod genlarni aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotlarini bajarish jarayonida an’anaviy genetik-seleksion usullardan, molekulyar genetikaning zamonaviy usullari (genom DNK ajratish, PZR-tahlili va genotiplash), hamda *in silico* usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor suv tanqisligi sharoitida bug‘doyning jahon kolleksiyasi namunalari va qadimiy mahalliy bug‘doy navlari hosildorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha fenotiplangan;

FAWWON SA va qadimiy mahalliy bug‘doy nav namunalaridan suv tanqisligi va optimal sharoitlarda hosildorlik ko‘rsatkichlari yuqori va barqaror bo‘lgan namunalar ajratib olingan;

qadimiy mahalliy navlar ko‘chatzorda suv tanqisligi sharoitida don hosildorligining shakllanishi genotipga 64% bog‘liqligi, bu navlarning genotipik dispersiyaning yuqoriligi va tabiiy iqlimning turli o‘zgarishlariga barqaror ekanligi isbotlangan;

PZR tahlili natijalariga ko‘ra 10 ta polimorf qurg‘oqchilikka chidamlilik bilan asosiatsiya bo‘lgan markerlar orasidan Xwmc11 190 j.a) bilan, Xgwm99 (105 j.a), Xgwm337 (180 j.a) DNK markerlarining genetik birikkanlik (asosiatsiyasi) darajasi yuqori ekanligi aniqlangan;

in silico PZR tahlili yordamida tanlangan DNK markerlarining genom yondosh hududidagi qurg‘oqchilikka chidamlilik bilan aloqador bo‘lgan genlarning nukleotid ketma-ketligi va shu genlar kodlaydigan oqsillarning aminokislotalar ketma-ketligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

FAWWON-SA yarim qurg‘oqchilik sharoitiga moslashgan navlar ko‘chatzorida namunalarda suv tanqisligi sharoitida optimal sharoitga yaqin darajada yuqori hosil beradigan namunalar ajratib olingan;

suv tanqisligi sharoitida hosildorlikka genotipning ta'siri intensiv tipdagi biologik kuzgi bug'doy namunalarida 23%, qadimiy mahalliy bug'doy navlarida 64%, FAWWON SA 24,3% bo'lib, don hosildorligining yillar davomidagi o'zgaruvchanlik yuqori 52,2% bo'lishi navlarning tashqi muhit omillarga ta'sirchan ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarda qo'llanilgan genetika va amaliy seleksiyaning zamonaviy usul va yondashuvlaridan foydalanilganligi, olingan raqamli ma'lumotlarni statistik qayta ishlashda variatsiyalar tahlili (ANOVA, Origin pro) kabi statistik usullardan foydalanilganligi, olingan natijalarining yetkachi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, xulosalarning ilmiy jihatdan isbotlanganligi bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, u qurug'oqchilikka chidamli yumshoq bug'doy namunalarini molekulyar tahlillar asosida genotiplanganligi, shuningdek, xalqaro GeneBank NCBI ma'lumotlar bazasida saqlanayotgan xorijiy nav va liniyalarning sekvenlangan ma'lumotlari asosida SSR markerlarning allel o'lchamlarini aniqlash uchun in silico PSR tahlili qo'llanilganligi, bug'doy genomida DNK-markerlar joylashgan hududlarda genlarni aniqlash va nomzod genlarni topish maqsadida AUGUSTUS bioinformatika dasturi orqali genlarni bashorat qilish amalga oshirilganligi bilan izoxlanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati suv tanqisligi sharoitida barqaror hosildorlik ko'rsatkichlariga ega bo'lgan genotiplarni aniqlanganligi va bu genotiplarni seleksiyaga tavsiya etganligi seleksion dasturlarda suv tanqisligiga chidamli navlar yaratishda boshlang'ich material bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston sharoitida yumshoq bug'doyning qurg'oqchilikka chidamliligining genetik asoslari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Tadqiqot natijalari bo'yicha olingan qadimiy mahalliy bug'doy navlari suv tanqisligi stressiga chidamlilik bilan genetik bog'langan DNK markerlari "Raqamlashgan fenomika modellashtirish texnologiyalardan foydalanib bug'doyning biotik va abiotik omillarga chidamli navlarni yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 7-oktyabrdagi 4/1255-2222-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, genomida Xgwm484 markerining gomozigota va geterozigota chidamlilik allelini (190 j.a) tutgan bug'doy tizmalari nelsegregant tizmalarga qaraganda 1000 ta don vazni va hosildorlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo'lib, suvsizlik va yuqori haroratga bardoshli namunalarni ajratib olish imkonini bergan;

bug'doyning hosildorlik belgilari bo'yicha multivariasion klaster tahlillari hamda qurg'oqchilikka chidamlilikni iyerarxik klaster tahlili natijalariga yuqori impakt faktorga ega bo'lgan uchta chet el ilmiy maqolasida havolalar keltirilgan

AGBIR Vol.40 No.02 Mar 2024
<https://www.researchgate.net/publication/380170182//> Plants. 2024, 13, 934:
<https://www.researchgate.net/publication/379189816//> biotech 2022, 11/2:
<https://doi.org/10.3390/biotech11030032>). Natijada, komponentlar va klaster tahlili

asosida tanlab olingan genotiplardan kelajakda suv tanqisligi sharoitiga chidamli yuqori hosildor tizmalar yaratishda foydalanish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop ettirilib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyasi asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola jumladan, 4 respublika ilmiy jurnallarida va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning amaliy natijalari va ilmiy yangiligi keltirilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzulishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning "**Yumshoq bug'doyning qurg'oqchilikka chidamlilikning genetik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida dunyo va mamlakatimiz olimlari tomonidan bug'doyning hosildorligini ta'minlovchi miqdoriy belgilariga qurg'oqchilikning ta'siri, stress ta'sir ettirilganda shu belgalarning nazorat qiluvchi genlarni aniqlash, hamda belgilarning o'zaro korrelyatsion bog'liqligi, genotip, yil va muhitning o'zaro ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ochib berilgan.


MAS va GWAS texnologiyalar, DNK markerlar turlari, qishloq xo'jaligi o'simliklarida MAS texnologiyasining qo'llanilishi va texnologiya yordamida olingan qurg'oqchilikka chidamli hosildor o'simlik navlari, texnologiyalarning an'anaviy seleksiyadan afzalliklari keltirilgan.

Bug'doyda qurg'oqchilikka chidamlilik DNK markerlari bo'yicha *in silico* PZR va bioinformatik tahlillardan foydalanib, nomzod genlar va oqsillarni aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar sharxi keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning "**Materiallar, tadqiqot usullari va sharoitlari**" mavzusidagi ikkinchi bobida tadqiqot o'tkazishning usullari, sharoitlari, manbalari va uslublari batafsil yoritilgan. Tadqiqot manbalar sifatida geografik kelib chiqishi uzoq bo'lgan, 25thFAWWON-SA, respublikada rayonlashgan bug'doy navlari va qadimiy mahalliy bug'doy navlarining qimmatli xo'jalik belgilari tahlillari, foydalanilgan statistik uslublar bayon etilgan. O'simlik materiallari, foydalanilgan reagentlar va uskunalari, DNK ajratish usullari, PZR tahlillar, gel-elektroforez va genotiplash tasnifi keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Qurg‘oqchilikning bug‘doy vegetativ rivojlanishiga va hosildorligiga hamda hosildorlikni ta‘minlovchi miqdoriy belgilarga ta‘siri**” mavzusidagi uchinchi bobida olingan natijalar tahlili va muhokamasi keltirilgan.

Mazkur bobning birinchi bo‘limida FAWWON-SEMI ARID qurg‘oqchil sharoitga moslashgan fakultativ kuzgi bug‘doy ko‘chatzori 30 ta nav-namunalarining suv tanqisligi sharoitida bug‘doy vegetativ rivojlanishiga ta‘siri va hosildorlik bilan korrelyatsion bog‘liqligi, qimmatli xo‘jalik belgilarining optimal sug‘orilgan va suv tanqisligi sharoitda uch yillik ko‘rsatkichlari bayon etilgan.




1-rasm. Hosildorlik va vegetatsion rivojlanish davri orasida korrelyatsion bog‘liqlik. GY-don hosildorligi. HD-boshloqlash davri. GF-don to‘lishishi GM-to‘liq pishish davri.* $p < 0.05$, ** $p < 0.01$.

Shunga ko‘ra o‘rganilgan navlarda hosildorlik boshloqlash va to‘liq pishish davri bilan o‘rtacha salbiy ($r=-0,4502^*$ va $r=-0,4918^{**}$) holda don to‘lishish davri bilan esa past ijobiy ($r=0,1286^*$) bog‘lanishga ega ekanligi kuzatilgan. Boshloqlash davrining qisqarishi va pishish vaqtining uzayishi kombinativ ta‘siri genotipda don to‘lishish vaqtini uzaytirgan. Stress sharoitda boshloqlash davri bilan pishish davri o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘lanish ($r=0,664^{***}$) qayd etilib, doning pishishi to‘g‘ridan to‘g‘ri boshloqlash vaqtiga bog‘langan va boshloqlash davridan keyin hosil bo‘ladi (1-rasm).

Umumiy o‘rtacha hosildorlik bo‘yicha ikki xil muhit taqqoslanganda ($524,7 \text{ gr/m}^2$ optimal va $522,9 \text{ gr/m}^2$ stress sharoit) deyarli farq qilmasada, ammo genotiplar o‘rtasida shu belgi bo‘yicha yuqori farqlanish qayd etilgan. FAWWON-SA ko‘chatzorining N-18 ($808,1 \text{ gr/m}^2$), N-26 ($853,3 \text{ gr/m}^2$) va N-28 ($807,9 \text{ gr/m}^2$) kabi genotiplar suv tanqisligi sharoitida, bir boshloqdagi don soni va don vaznining yuqori bo‘lishi orqali, yuqori hosildorlik namoyon bo‘lgan. Yuqoridagi namunalarining suv tanqisligi sharoitda gullashdan pishishgacha bo‘lgan vaqt oraliq idagi yuqori harorat don to‘lishish davrining uzayishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmagan (2-rasm). N-13 (231 gr/m^2) amunasi stress sharoitda eng past ko‘rsatkich (250 gr/m^2) ni qayd etib, yuqori haroratga chidamsiz ekanligi va donning to‘liq yetilmaganligi sababli, don soni

ko‘p, ammo puch bo‘lib qolishi hisobiga bir boshqdagi don vazni va 1000 dona don vazni past bo‘lishiga olib kelgan.



2-rasm. 2018-2019 yillirdagi suv tanqisligi hamda optimal sug‘orilgan sharoitlarda FAWWON-SA ko‘chazorining 30 ta nav namunalari ning 1m² don hosildorligi ko‘rsatkichlari (gr/m²).


Bobning ikkinchi bo‘limida qadimgi mahalliy bug‘doy navlari ko‘chatzori namunalari ning suv tanqisligi sharoitida bug‘doy vegetativ rivojlanishiga ta’siri va hosildorlik bilan korrelyatsion bog‘liqligi, qimmatli xo‘jalik belgilarining optimal sug‘orilgan va suv tanqisligi sharoitida uch yillik ko‘rsatkichlari bayon etilgan.

Tajribalarimizda qadimgi mahalliy navlar ko‘chatzorining uch yil mobaynidagi o‘rtacha hosildorlik tahlil etilganda va boshqa ko‘chatzor navlari bilan solishtirilganda, o‘rtacha hosildorligi barqaror ekanligi aniqlanib, bu navlarning O‘zbekiston sharoitiga bir necha yillar davomida lalmi maydonlarga moslashganligi tufayli, suv tanqisligi hamda noqulay iqlim sharoiti navlar hosildorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmagan (3-rasm). Navlar o‘rtasida hosildorlik belgisi bo‘yicha o‘zgaruvchanlik ko‘lami uch yil mobaynida yuqori bo‘lgan.

Tajribalarda qadimgi mahalliy Surxak (Qashqadaryo 43%), Sanzar-4 (28 %), Qizil bug‘doy (Surxandaryo Boysun Qo‘rg‘oncha 23 %), Qayroqtosh (19%), Qizil bug‘doy (Surxandaryo Boysun, Duoba, 17%) navlarida shartli lalmi (sug‘orilmaydigan) muhitda o‘rtacha uch yillik hosildorlik 19 % dan 43 % gacha oshgan.

Qadimgi mahalliy navlar lalmi hududlarga ekishga moslashganligi sababli, qurg‘oqchilikka bardoshli indikator navlar deb ta’riflangan. Tajribalarda ishtirok etgan ayrim qadimgi mahalliy Qizil bug‘doy (Surxandaryo Boysun, Duoba 34 %),

Oq bug‘doy (25%), Buxor bobo (20%), Oq bug‘doy (25%), Qizil bug‘doy (Qashqadaryo, Qamashi, Qug‘a 9%), Sanzar-8 (7%), Kal bug‘doy va Surxak (Qashqadaryo 4%) kabi navlarda suv tanqisligi sharoitida hosildorlikning 9% - 25% gacha kamayganligi kuzatilgan (3-rasm).








3-rasm. 3 yillik suv tanqisligi hamda optimal sug‘orilgan sharoitlarda qadimiy mahalliy bug‘doy navlari ko‘chazorining 12 ta nav namunalari 1m² don hosildorligi ko‘rsatkichlarning (gr/m²) qiyosiy tahlili.

Bobning uchinchi bo‘limida rayonlashgan bug‘doy navlari ko‘chatzori navlarning suv tanqisligi sharoitida bug‘doy vegetativ rivojlanishiga ta‘siri va hosildorlik bilan korrelyatsion bog‘liqligi, qimmatli xo‘jalik belgilarining optimal sug‘orilgan va suv tanqisligi sharoitida uch yillik ko‘rsatkichlari bayon etilgan. Tadqiqotlar davomida rayonlashgan navlar ko‘chazorining 28 ta navlarining miqdoriy belgilariga: boshqoq uzunligi, bir boshqodagi don soni, don vazni, 1000 don vazni, bir boshqodagi boshqochalar soniga suv tanqisligini ta‘sirini baxolash maqsadida, sinflarga taqsimlash usulidan foydalanilgan. Natijalarga ko‘ra suv tanqisligi sharoitida rayonlashgan navlar miqdoriy belgilaridan don soni, stressga sezuvchanligi yuqori ekanligi aniqlangan. Bir boshqodagi o‘rtacha don soni belgisi bo‘yicha 28 ta navlarda optimal va suv tanqisligi sharoitida ANOVA taxlil natijalariga ko‘ra yuqori ishonchlilik darajada farqlanish ($P < 0.0009$) borligi qayd etilgan. Shunga ko‘ra suv tanqisligi bir boshqodagi don sonini 11 % kamayishiga olib kelib, optimal sharoitda o‘rtacha don soni ($52,5 \pm 1.3$) ni, stress sharoitda esa (47.1 ± 1.3) ni tashkil etgan.

Eng ko‘p uchraydigan ko‘rsatkich (Mo) bo‘yicha optimal sharoitida (52,8) suv tanqisligi (40,7) sharoitiga nisbatan yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan. Shu belgi

bo'yicha 28 genotip ikkala sharoitlarida 5 ta sinfga taqsimlangan (4-rasm). Optimal sug'orilgan sharoitda genotiplarning asosiy qismi (20 ta) 51 dan 63 gacha, suv tanqisligi sharoitida esa 46 dan 50 oralig'ida bo'lganligi aniqlangan. Olingan natijalarga ko'ra rayonlashgan navlarda suv tanqisligi, bir boshodagi don sonining kamayishiga sabab bo'lganligi aniqlangan.



4-rasm. Otimal va suv tanqisligi sharoitlarida bir boshodagi don soni va vazni, 1000 ta don vazni, boshochalar soni, boshog uzunligi bo'yicha qiyosiy tahlil.

Bir boshqodagi don vazni belgisi bo'yicha ham navlarda yuqori ishonchlilik darajada farqlanish ($P < 0.0001$) borligi qayd etilib, qurg'oqchilik stressi don vazning 14,4% pasayishiga sabab bo'lgan.

Don vazni bo'yicha genotiplar 4 ta sinflarga ajratilib, optimal sharoitda asosiy genotiplar 2 gr dan 3 gr oralig'ida bo'lib, mayda donli (1-1,5 gr) genotiplar kuzatilmagan. Stress sharoitda esa genotiplarning asosiy qismi 1,6-2,5 gr oralig'idaligi aniqlangan. Olingan natijalarga ko'ra stress sharoiti don vazniga sezilarli ta'sir ko'rsatib, navlar orasidagi o'zgaruvchanlik ko'lami kengayishiga va o'rtacha don vaznining pasayishiga sabab bo'lgan. 1000 ta don vazni bo'yicha 28 ta genotiplar 5 ta sinfga taqsimlanib, optimal sharoitda asosiy 19 genotipda 1000 don vazni 41-45 gr ni tashkil etsa, stress sharoitda esa 36 gr dan 50 gr oralig'ida taqsimlangan. Stress sharoitda 1000 don vazni 5,1 % pasayib, o'rtacha ko'rsatkich ($42,9 \pm 0,87$) optimal sharoitga nisbatan ($45,2 \pm 0,65$) pastligi aniqlangan. Bir boshqodagi boshqochalar soni bo'yicha navlar 5 ta sinfga taqsimlanib, shulardan optimal sharoitdagi 12 ta genotipda 17,2-18,5 gacha, stress sharoitda esa 10 ta genotipdarda 18,6-19,8 ta boshqochalar soni aniqlangan. O'rtacha boshqochalar soni stress sharoitda ($18,1 \pm 0,32$) optimal sharoitdan ($19,6 \pm 0,32$) past bo'lib, suv tanqisligi boshqochalar sonini 7,7 % kamaytirgan. Boshqoq uzunligi belgisi bo'yicha navlar 5 ta sinfga taqsimlanib, optimal sharoitda asosiy (12 ta) genotiplarning boshqoq uzunligi 10,9-11,7 sm ni, stress sharoitda esa asosiy (20 ta) genotiplarning boshqoq uzunligi 10,1-10,9 sm ni tashkil etgan. Tahlil natijalariga ko'ra stress sharoitda rayonlashgan navlarning boshqoq uzunligi 11,6 % qisqargan.

Bobning to'rtinchi bo'limida suv tanqisligi va optimal sharoitlardagi hosildorlikka «genotip x muhit x yil»ning ta'siri bayon etilgan.

Geografik kelib chiqishi turlicha bo'lgan navlar ko'chatzorlarida don hosildorligi uch yillik tabiiy iqlimning hamda suv tanqisligi va optimal sug'orilgan sharoitning ta'siri bo'yicha umumlashgan tahlil natijalariga ko'ra, FAWWON SA va respublikamizda rayonlashgan bug'doy navlari ko'chatzorlariga nisbatan qadimgi navlar jamlangan ko'chatzorda suv tanqisligi sharoitida don hosildorligining shakllanishi genotipga 64% bog'liqligi, yillar ta'sirida qadimgi mahalliy navlarning genotipik dispersiyaning yuqoriligi va tabiiy iqlimning turli o'zgarishlariga barqarorligi bilan bog'liq. Rayonlashgan navlar ko'chatzorida don hosildorligining yillar davomidagi o'zgaruvchanlik yuqori 52,2% bo'lishi navlarning tashqi muhit omillarga ta'sirchan ekanligini bildiradi (1-jadval).

Ko'p faktorli dispersion tahlil uchun geografik kelib chiqishi turlicha bo'lgan uchta ko'chatzor navlarining (genotip), ikki xil (suv tanqisligi va optimal sug'orilgan) sharoitlarda (muhit) uch yillik (yil) hosildorlik ko'rsatkichlariga genotip x muhit x yil ta'siri tahlil qilindi.

FAWWON-SA ko'chatzorida don hosildorligining o'zgaruvchanligiga genotipning ulushi 21,64% va 24,31% kam bo'ldi. Suv tanqisligi sharoitida qurg'oqchilikka moslashgan ko'chatzori navlarida genotip x yil ning o'zaro birlashgan ta'siri (38,0%) va yilning ta'siri (37,7%) deyarli bir xil yuqori, genotipning ta'siri esa nisbatan pastroq (24,31%) ekanligi aniqlandi.

Qadimgi mahalliy navlar ko‘chatzorining don hosildorligiga «genotip x muhit x yil» ta’siri tahlil qilinganda, shu belgining barqarorligiga genotip ulushi stress sharoitida 60 % va optimal sharoitda 64 % boshqa ko‘chatzor navlariga nisbatan yuqoriligi aniqlandi.

Rayonlashgan navlar ko‘chatzori hosildorligiga genotip, muhitlar va yillarning ta’siri bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra suv tanqisligi sharoitida yillardagi obxavoning ta’siri 47 %, genotip ta’siri 20 % ni va genotip bilan yillarning kombinatsion ta’siri esa 33 % ni tashkil etdi.

1-jadval

Kelib chiqishi xar-xil bo‘lgan uchta ko‘chatzor navlarining suv tanqisligi va optimal sharoitlardagi hosildorligiga «genotip x muhit x yil»ning ta’siri (G x E x Y).


Variasion qator	Son	Optimal sharoit	%	Suv tanqisligi	%
	(Df)	(irrigated plot SS)		(rainfed plot SS)	
	n-1	mean sum of squares		mean sum of squares	
FAWWON SA	30				
Genotip (Genotype)	29	610531,9	21,64%	651044,9	24,31%
Yil (Year)	2	1323968	46,93%	1009772	37,70%
Genotip x yil (G x Y)	58	886425	31,42%	1017782	38,00%
Total (Adjusted)	89	2820925		2678600	
Qadimgi mahalliy navlar	12				
Genotip (Genotype)	11	411122,9	60,00%	366264,3	64,00%
Yil (Year)	2	52667,82	8,00%	58833,15	10,00%
Genotip x yil (G x Y)	22	216668,5	32,00%	151101,8	26,00%
Total (Adjusted)	35	680459,2		576199,3	
Rayonlashgan navlar					
Genotip (Genotype)	27	459248,5	20%	646050	23%
Yil (Year)	2	1068102	47%	1459307	52%
Genotip x yil (G x Y)	54	756499	33%	723333,1	26%
Total (Adjusted)	83	2283849		2828690	
* Term significant at alpha = 0,05					

Dissertatsiyaning “Mikrosatellit markerlari yordamida bug‘doyning qurg‘oqchilikka chidamliligini asosiylash” mavzusidagi to‘rtinchi bobida geografik kelib chiqishi turlicha bo‘lgan genotiplarning qurg‘oqchilikka chidamlilikka asosiylashgan 15 ta mikrosatellit va hosildorlikka asosiylashgan 10 ta mikrosatellit markerlari bo‘yicha PZR tahlili o‘tkazilgan hamda qurg‘oqchilikka chidamlilik DNK markerlari genom hududlarining *in silico* PZR va *AUGUSTUS* tahlillari amalga oshirilgan.

Mazkur bobning birinchi bo‘limida mikrosatellik markerlari va qurg‘oqchilikka chidamli va chidamsiz o‘simlik namunalarini tanlash bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar keltirilgan.


PZR tahlili natijalariga ko‘ra 10 ta qurg‘oqchilikka chidamlilik bilan asosiatsiya bo‘lgan markerlar orasidan Xwmc11 DNK markerida genetik birikkanlik (asosiatsiyasi) darajasi yuqori ekanligi aniqlangan.

Shu asosda uchta ko‘chatzordan tanlab olingan 28 ta nav namunalar ichidan chidamlilik bilan genetik bog‘langan 190 juft asos (j.a) alleli 5 ta bug‘doy namunalar (2-FAWWON58, 3-FAWWON59, 4-FAWWON76, 7-FAWWON74, 30-Nota) genomida gomozigota holatda, 11 bug‘doy namunalarida (6-FAWWON80, 8-FAWWON66, 11-FAWWON69, 14-Qizil bug‘doy (S/B/D), 19-Buxor bobo, 20- Qizil bug‘doy (Q/Q/K), 23-Kal bug‘doy, 24-Oq bug‘doy, 35-Kroshka, 46-Velena, 50-Zimnisa) geterozigota holatda mavjud ekanligi aniqlangan. Shuningdek, 10 ta (1-FAWWON58, 9-FAWWON68, 21-Sanzar, 22-Qizil bug‘doy (S/B/Q), 25-Intensivnaya, 28-Korasnovodopadskaya-210, 33-Tabor, 40-Grom, 42-Krassnodarskaya-99, 47-Vassa) namunalar genomida chidamlilik alleli (190 j.a.) uchramagan (5-rasm).



5-rasm. 50 ta chidamli va chidamsiz bug‘doy namunalarning qurg‘oqchilikka chidamlilik bilan genetik bog‘langan Xwmc11 DNK markerlar bilan PZR skriningi. M – molekulyar og‘irlik markeri (j.a. – juft asos);

PZR tahlillari natijasida genetik bog‘langan juft asos (j.a) da uchragan geterozigota xolati shu genotipning o‘rtacha chidamliligini, gomozigota xolati esa kuchli chidamlilikni ifodalaydi



a)

b)


6-rasm. Suv tanqisligi stressiga chidamlilik DNK markerlari effektini baholash (one-way ANOVA) tahlili a) wmc11 DNK markeri bo‘yicha chidamli va chidamsiz genotiplar b) stressga chidamlilik indeksi (STI) chidamli va chidamsiz genotiplar. A – alleli mavjud genotiplar; B- alleli yoq genotiplar;

Suv tanqisligi stressi bilan genetik bog‘langan Xwmc11 DNK markerining samarasini baholash maqsadida chidamlilik alleli mavjud bo‘lgan genotiplar va mavjud bo‘lmagan genotiplarning stressga chidamlilik indeksi (STI) bir omilli ANOVA (one way) tahlili yordamida o‘zaro taqqoslangan. Shunga ko‘ra chidamlilik alleli (190 f.a) mavjud navlarda stressga chidamlilik indeksi o‘rtacha qiymati 1.15 ni tashkil etgan. Bu esa shu navlarni nisbatan chidamli ekanligini ko‘rsatadi. Chidamlilik alleli mavjud bo‘lmagan genotiplarning stressga chidamlilik indeksi o‘rtacha qiymati 0.44 ni tashkil etib, bu genotiplar stressga nisbatan chidamsizligini bildiradi (6-rasm).

Mazkur bobning ikkinchi bo‘limida qurg‘oqchilikka chidamlilik xususiyatlari bilan genetik bog‘langan 10 ta DNK markerlari allel polimorfizmi asosida OriginPro 2021 statistika tahlillar dasturining Date Hierarchical Clustering dendrograms yordamida tadqiqot obektlari bo‘lmish 28 ta bug‘doy namunalarning filogenetik munosabatlari o‘rganildi.

Iyerarxik klaster taxliliga ko‘ra 28 ta bug‘doy namunalari 2 ta asosiy A va V klasslarga bo‘lindi (7-rasm). A klass asosan qurg‘oqchilikka chidamsiz 9 ta genotipni o‘z ichiga jamlagan bo‘lib, ikkita pod klassga bo‘lindi. Birinchi podklass **1-FAWWON58, 15-Sanzar va 25-Krassnodar-99** navlarni o‘z ichiga olgan. Ikkinchi pod klass esa **5-FAWWON60,16,19,20,27,9,24** navlarni o‘z ichiga olgan. B klass

asosan qurg‘oqchilikka o‘rtacha va kuchli chidamli 17 ta genotipni o‘z ichiga olgan bo‘lib, to‘rtta pod klassga bo‘lindi. Birinchi podklass 2-,28,10,22,4,13, ikkinchi podklass 2,26,18, uchinchi podklass 3- FAWWON59,12,23,17,21,8-FAWWON66,14 va to‘rtinchi podklassga 7- FAWWON74 va 11- FAWWON69 genotiplarni o‘z ichiga olgan. Variatsion iyerarxik klaster tahlillari natijalariga ko‘ra, genotiplarni aynan chidamlilik bo‘yicha variatsion ajralish natijalari tanlanlan SSR markerlar ishonchliligini bildiradi.



7-rasm. 28 ta yumshoq bug‘doy namunalarining qurg‘oqchilikka chidamlilik bilan genetik bog‘langan DNK markerlari polimorfizmi asosidagi klaster tahlili.

Mazkur bobning uchinchi bo‘limida qurg‘oqchilikka chidamlilik DNK markerlari genom hududlarining *in silico* PZR taxlili va nomzod genlarni aniqlash bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar keltirilgan.

Xwmc11, Xgwm99 va Xgwm337 praymerlarning *In silico* PZR taxlili yordamida NCBI malumotlar bazasidan qurg‘oqchilikka chidamlilik bilan aloqador vertual ampikon uzunligi aniqlanagan (8-rasm).

Triticum aestivum subsp. tibeticum isolate Zang1817 chromosome 3D, whole genome shotgun sequence

Sequence ID: [JACIS010000009.1](#) Length: 614201292 Number of Matches: 2

Range 1: 5424661 to 5424683 [GenBank](#) [Graphics](#)

[▼ Next Match](#) [▲ Previous Match](#)

Score	Expect	Identities	Gaps	Strand
42.8 bits(46)	0.76	23/23(100%)	0/23(0%)	Plus/Minus

```

Query 34      TCAACATATATAACGGCTGGGTG 56
              |||
Sbjct 5424683 TCAACATATATAACGGCTGGGTG 5424661
    
```

Range 2: 5424882 to 5424904 [GenBank](#) [Graphics](#)

[▼ Next Match](#) [▲ Previous Match](#) [▲ First Match](#)


Score	Expect	Identities	Gaps	Strand
38.3 bits(41)	32	22/23(96%)	0/23(0%)	Plus/Minus

```

Query 1      TTGTGATCCTGGTTGTTGTGA 23
              |||
Sbjct 5424904 TTGTGATCCTGGTTGTTGTGA 5424882
    
```

8-rasm. Xwmc11 praymerlarning *In silico* PZR virtual amplikon uzunligi.

Ushbu taxlil “Zang1817” Tibet tog‘laridagi qadimgi mahalliy bug‘doy navining 3D xromosomada F va R praymerlarga muvofiq DNK segmentlarini joylashuvini va Xwmc11 virtual amplikonning uzunligi (3D xromosomaning 5424683 va 5424882 nukleotidlar orasida (bu nukleotidlarni o‘z ichiga olgan xolda)) $5424882 - 5424683 = 199$ bp bo‘lishini ko‘rsatdi.



9-rasm. AUGUSTUS dasturida Xwmc11 markering atrofidagi 100kb genom yondosh hududidagi nomzod genlarning joylashuvi.

AUGUSTUS dasturida Xwmc11 Xgwm99 va Xgwm337 markerning atrofidagi 100kb genom yondosh hududidagi genlarning nukleotid ketma-ketligi shu genlar kodlaydigan oqsillarning nukleotid ketma-ketligi aniqlandi (9-rasm).

XULOSALAR

“O‘zbekiston sharoitida yumshoq bugdoyning qurg‘oqchilikka chidamliligining genetik asoslari” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etilgan:

1. Yumshoq bug‘doyning suv tanqisligiga chidamli bo‘lgan fakultativ tipdagi navlarida hosildorlik boshqoqlash va to‘liq pishish davri bilan o‘rtacha salbiy, don to‘lishish davri bilan esa past ijobiy bog‘lanishga, suv tanqisligiga chidamsiz bo‘lgan kuzgi navlarda hosildorlik donning to‘lishish va to‘liq pishish davri bilan past salbiy bog‘lanish mavjudligi aniqlandi.
2. Suv tanqisligi stress sharoitida don hosildorligining o‘zgaruvchanligi fakultativ tipdagi FAWWON-SA ko‘chatzorida genotiplar orasida katta, qadimiy mahalliy bug‘doy navlarida barqaror va kuzgi bug‘doy navlarida hosildorlik 42% gacha pasayganligi kuzatildi.
3. Ko‘p faktorli dispersion tahlil qadimgi mahalliy navlar ko‘chatzorda suv tanqisligi sharoitida don hosildorligining shakllanishi genotipga 64%, kuzgi bug‘doy navlarida yillar davomidagi o‘zgaruvchanlik yuqori 52,2% bo‘lishi bu navlarning tashqi muhit omillarga ta’sirchan ekanligini, FAWWON-SA ko‘chatzorlarida suv tanqisligi sharoitida don hosildorligining shakllanishida genotip x yilning ta’siri 38,00% yuqori ekanligini ko‘rsatdi.
4. Mikrosatellit markerlari yordamida bug‘doyning qurg‘oqchilikka chidamlilik 15 ta juft SSR markerlaridan 5 tasida (Xgwm603, Xgwm108, Xgwm484, Xwmc89 va Xwmc118) monomorflik va 10 tasida polimorflikni namoyon qildi. Hosildorlikka asosiatsiyalangan 10 ta juft SSR markerlaridan 4 tasida (Xbarc121, Xbarc44, Xbarc105 va Xwmc11) monomorflik va 6 tasida polimorflikni namoyon qildi.
5. PZR taxlili natijalariga ko‘ra 10 ta polimorf qurg‘oqchilikka chidamlilik bilan asosiatsiya bo‘lgan markerlar orasidan Xwmc11 190 j.a) bilan, Xgwm99 (105 j.a), Xgwm337 (180 j.a) DNK markerlarining genetik birikkanlik (asosiatsiyasi) darajasi yuqori ekanligi aniqlandi.
6. Suv tanqisligi stressi bilan genetik bog‘langan Xwmc11 DNK markerning samarasini baxolash maqsadida chidamlilik alleli (190 j.a) mavjud bo‘lgan genotiplarda stressga chidamlilik indeksi (STI) o‘rtacha qiymati 1.15 ga teng ekanligi, chidamlilik alleli mavjud bo‘lmagan genotiplarda 0.44 ni tashkil etishi, markerning samarali ekanligini isbotlandi.
7. Xwmc11, Xgwm99 va Xgwm337 praymerning *In silico* PZR taxlili yordamida NCBI ma’lumotlar bazasidan vertual amplikonlar uzunligi aniqlandi va *AUGUSTUS* dasturida markerlar atrofidagi 100kb genom yondosh

hududidagi qurg‘ochilikka chidamlilik bilan aloqador bo‘lgan genlarning nukleotid ketma-ketligi va shu genlar kodlaydigan oqsillarning aminokislotalar ketma-ketligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.02/30.12.2019.B.53.01 ПРИ ИНСТИТУТЕ ГЕНЕТИКИ И
ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ БИОЛОГИИ РАСТЕНИЙ**

**ИНСТИТУТ ГЕНЕТИКИ И ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ
БИОЛОГИИ РАСТЕНИЙ**

АДИЛОВА ШОХИСТА ШУХРАТ ҚИЗИ

**Генетические аспекты засухоустойчивости пшеницы в условиях
Узбекистана**

03.00.09 – общая генетика

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2019.2.PhD/В334

Диссертация выполнена в Институте генетики и экспериментальной биологии растений

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.genetika.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель:

Моргунов Алексей Иванович
Кандидат сельскохозяйственных наук

Официальные оппоненты:

Убайдуллаева Хуршида Абдуллаевна
доктор биологических наук

Джабборов Иброхим Шодманович
доктор биологических наук, профессор

Ведущая организация:

**Научно-исследовательский институт
Генетических ресурсов растений**

Защита диссертации состоится “___” _____ 2025 г. в ___ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.B.53.01 при Институте генетики и экспериментальной биологии растений (Адрес: 1112208, Ташкентская область, Кибрайский район, п/о Юкори - юз, актовый зал Института генетики и экспериментальной биологии растений. Тел.:(+99871)264-23-90, факс (+99871)264-23-90. E-mail: igebr@academy.uz, genetics@uzsci.net, gen@inst.gov.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института генетики и экспериментальной биологии растений (зарегистрирована за №.....). Адрес: 111208, Ташкентская область, Кибрайский район, п/о Юкори-юз. Тел.: (+99871)264-23-90.

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2025 года

(реестр протокола рассылки ”___” от “___” _____ 2025 года)

А.А. Нариманов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.с./х.н., профессор

И.Дж.Курбанбаев
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых
степеней, д.б.н., профессор

И.Т.Каххаров
председатель Научного
семинара при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.с/х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотации диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Мягкая пшеница (*Triticum aestivum L.*) является одной из важнейших культур во всём мире. По последним данным ФАО за 2024 год по всему миру под этой культурой были засеяны 220 миллионов гектаров и выращено 792,9 миллиона тонн пшеницы. Глобальное изменение климата за последние годы, увеличение абиотического стресса оказывает негативное влияние на урожайность пшеницы. Для решения подобных проблем важное значение имеет использование селекционных технологий, основанных на современных маркерах, при создании новых генетически усовершенствованных сортов сельскохозяйственных культур, устойчивых к биотическим и абиотическим факторам.

В мире проводится ряд научных работ по повышению устойчивости сельскохозяйственных культур, выращиваемых на орошаемых площадях, к водному дефициту. В связи с этим актуальными задачами являются перенос генов устойчивости, присутствующих у стародавних сортов пшеницы и диких потомков, устойчивых к различным стрессовым факторам, на местные сорта, определение ДНК-маркеров, связанных с урожайностью, выделение ценных генотипов с использованием маркерной технологии.

